



Journal of
NATURAL SCIENCE

<http://natscience.jspi.uz>

№5/3(2021)

biology chemistry geography



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

DAMINOV G‘ULOM NAZIRQULOVICH

tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan

onlayn konferensiya materiallari



Jizzax-2021

<u>ТАХРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Беларусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д.,проф12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.13. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**“ZOMIN” TURISTIK - REKREATION ZONASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

Komilova N.Q¹, Usmanov M.R², Karimov I.E³.

Jizzax davlat pedagogika instituti

E-mail: mashrabusmonov79@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zomin tumanida turistik-rekreasion zonasini rivojlantirish istiqbollari hamda turizmni tashkil etish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, sayyohlarni keng jalb etish bo'yicha istiqbolli loyihalarga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: turizm, turistik-rekreasion zona, turizm xizmatlari, turizm infratuzilmasi, tog' va ekstremal turizmi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются перспективы развития туристско-рекреационной зоны в Зааминском районе, а также возможности организации туризма, а также предлагаются предложения и рекомендации по перспективным проектам по привлечению большего количества туристов.

Ключевые слова: туризм, туристско-рекреационная зона, туристические услуги, туристическая инфраструктура, горный и экстремальный туризм.

Annotation: This article focuses on the prospects for the development of the tourist and recreational zone in Zaamin district, as well as the possibility of organizing tourism, and offers suggestions and recommendations for promising projects to attract more tourists.

Key words: tourism, tourist-recreation zone, tourism services, tourism infrastructure, mountain and extreme tourism.

Yurtimizda turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy sharoitlarni yaratish, milliy turizm mahsulotlarini jahon turistik bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash, sayyohlik ob'ektlaridan samarali foydalanish, ko'rsatilayotgan xizmat turlari sifatini oshirish, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini ko'paytirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida “turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish”⁴ vazifalari

¹ O'zbekiston milliy universiteti, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasini professori.

² Jiz.DPI, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasini o'qituvchisi.

³ Jiz.DPI, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasini katta o'qituvchisi. (PhD)

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони//www.lex.uz

belgilab berilgan. Bu borada respublikamizda turistik destinatsiyalarning rivojlanishiga tabiiy geografik omillarning ta'siri, ularning hududiy farqlari va mavsumiy o'zgarish xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi “Zomin” turistik-rekreatsion zonasi faoliyatini hamda xalqaro umummavsumiy tog'-chang'i kurortini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6201-son Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan “Zomin” turistik-rekreatsion zonasini rivojlantirish konsepsiyasi Jizzax viloyatining turistik salohiyatini rivojlantirish, uning viloyat iqtisodiyotidagi o'rni va hissasini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini transport-kommunal infratuzilmasi ob'ektlari bilan kompleks kengaytirish, yangi turistik marshrutlarni shakllantirish, aholining dam olishi uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, shuningdek, turizm xizmatlari ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholi bandligini ta'minlash va farovonligini oshirishga qaratilgan hisoblanadi.

Jizzax viloyati yuqori turizm salohiyatiga ega bo'lib, bu eng avvalo viloyatning turizm turlarini rivojlantirishga imkon beruvchi noyob tabiati bilan bog'liq. Xususan, hududda tog' va ekstremal turizm turlari, jumladan, alpinizm, snoubording, aeronavtika, velosport, motosport, shuningdek, ekologik va agro turizmni rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Bundan tashqari, viloyat ziyorat va gastronomik turizm yo'nalishlarida ham yuqori salohiyatga ega sanaladi.

Ayni paytda Zomin, Baxmal, Forish va G'allaorol tumanlari hududida 45 ta zamonaviy mehmonxona hamda 150 ta mehmon uylarini tashkil etilishi, sayyohlarning hududda uzoqroq muddat qolishini ta'minlash maqsadida milliy urf-odat va an'analar, to'y-marosimlar, ko'ngilochar tadbirlar namoyish etish, tabiatga, shuningdek, madaniy-tarixiy maskanlarga sayohatlar uyushtirish rejalashtirilganligini ta'kidlash mumkin.

2021 - 2023 yillarda Zomin tumanida jami 25 ta mehmonxona, 73 ta dam olish maskanlari va sihatgohlar qurilishi va ularda tashkil etiladigan o'rinlar soni 1 460 tani tashkil etishi belgilangan bo'lib, bugungi kunga kelib viloyatda mahalliy va xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatuvchi 307 ta tashkilot mavjud. 2019 yilda turizm xizmatlari eksport hajmi 1 067 220 AQSh dollarini hamda 2020 yilda 117 780 (prognoz) AQSh dollarini tashkil etdi.

Shunga qaramasdan, hududning ulkan turizm salohiyati va boy tabiiy resurslarini inobatga olganda, joylashtirish vositalari, sanatoriylar va dam olish maskanlari, turizm infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmaganligi, turistlarga

ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining pastligi va sonining chegaralanganligi sababli yuqoridagi ko'rsatkichlar qoniqarsiz hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi “Zomin” turistik-rekreatsion zonasi faoliyatini hamda xalqaro umum mavsumiy tog'-chang'i kurortini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6201-son Farmoniga muvofiq belgilangan asosiy qoidalaridan kelib chiqib, “Zomin” turistik-rekreatsion zonasi (keyingi o'rinlarda - Turistik zona) yaratish va rivojlantirish, shuningdek, ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish hamda Jizzax viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish maqsadida quyidagi choralarni ko'rish nazarda tutilgan.

1. Turistlarga xizmat ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlarga ega zamonaviy turizm infratuzilmasi ob'ektlari, shuningdek maxsus, funksional va mavsumiy dam olish majmuasini yaratish.

2. Transport vositalarining erkin harakatini ta'minlash, hududda yangi turdagi transport harakatini joriy etish, tegishli transport infratuzilmasini rivojlantirish.

3. Turizm xizmatlarini tashkil etishda turistlarning hayoti va salomatligi xavfsizligini ta'minlash.

4. Yangi zamonaviy energiya tejevchi tizim va texnologiyalarni joriy etish orqali noyob ekologik tizimni saqlab qolish.

5. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, hududning turizm salohiyatini targ'ib qilish.

6. Turizm sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki turistik zonani rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish natijasida quyidagilarga erishilishi mumkin:

Jizzax viloyatining boy turizm salohiyatidan samarali foydalanishga erishish, yangi turizm mahsulotlarini yaratish va faol targ'ib qilishdan iborat.

Hududda turizm sohasini rivojlantirish uchun tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qila oladigan xalqaro darajadagi raqobatbardosh turizm, tog'-chang'i va dor yo'li majmualarini yaratish, turizm sohasida tadbirkorlikning rivojlanishi, shu asosda turizm xizmatlari ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi bandligi va farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Jizzax viloyatiga tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy turistlar sonining yillik o'sishi tufayli ko'rsatiladigan turizm xizmatlari hajmining o'sishi va 2025 yilgacha mamlakatda jami turizm xizmatlari eksportini 1 750 million AQSh dollariga yetkazishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 апрелдаги “Зомин” туристик-рекреацион зонасини ва халқаро умуммавсумий курортини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6201-сон Фармони.
2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.04.2021 й., 09/21/254/0391
2. Тухлиев И.С., Хайитбоев Р. Туризм асослари. Дарслик. Т.: Фан ва технология. 2014. 323 б.
3. Lapasovich, M. O., Nematovich, N. O., Yakubovich, Z. B., Rustamovich, U. M., & Tolipov, F. (2020). HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC CHARACTERISTICS AND SOCIO-SPIRITUAL FACTORS OF VISITING TOURISM IN UZBEKISTAN. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 47-50.
4. Солиев А.С., Усмонов М.Р. “Туризм географияси”. Монография. Самарқанд, 2005 й.
5. Komilova, N. K. (2021). TOURIST DESTINATION AS AN OBJECT OF RESEARCH OF SOCIAL AND ECONOMIC GEOGRAPHY. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 2058-2067.
6. Komilova, N. K., Matchanova, A. E., Safarova, N. I., Usmanov, M. R., & Makhmudov, M. M. (2021). Some socio-economic aspects of gastronomic tourism study. *Estudios de economía aplicada*, 39(6), 12.
7. Usmanov, M. R. (2021). The Prospective Of The Development Of Ecotourism In Jizzakh Region. *Journal of Geography and Natural Resources*, 1(01), 8-10.
8. Usmanov, M. (2020). Туризм–иқтисодий ва ижтимоий географиянинг тадқиқод объекти сифатида. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-5.
9. Холиқулов, Ш., & Ибодуллаев, Қ. (2020). Жиззах вилоятида экологик туризмни ривожлантириш истиқболлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-7.
10. Usmanov, M. (2020). Жиззах вилояти сув ресурсларидан фойдаланишнинг географик жиҳатлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
11. Холиқулов, Ш., & Мавлонова, С. (2020). Ўзбекистонда туристик имкониятлардан фойдаланишнинг географик жиҳатлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-7.
12. Курбонов, К. (2020). Жиззах вилояти ва унинг ривожланиш истиқболлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
13. Usmanov, M. (2020). Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда “диний туризм” нинг аҳамияти. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

14. Усманов, М. (2020). Теоретика-методологические вопросы географии экологического туризма. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-4.
15. Usmanov, M. (2020). Ўзбекистонни туристик районлаштиришнинг баъзи масалалари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-6.
16. Жўрахўжаев, Д., & Мухамедов, Ж. (2020). Жиззах вилояти екотуристик имкониятларидан самарали фойдаланиш. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
17. Жиззах вилоятининг табиий сув ҳавзалари ва улардан самарали фойдаланишнинг географик жиҳатлари. JX Jumanazar - Архив Научных Публикаций JSPI, 2020
18. Гаппаров, А. (2021). ПЕРИОДИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ В ДЕМОГРАФИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ НАСЕЛЕНИЯ ГОРОДА ДЖИЗАК. *Журнал естественных наук*, 1(2).
19. Каримов, И. Э., & Абдуллаев, И. Х. (2020). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ДЖИЗАКСКОГО ВОДОХРАНИЛИЩА. In *ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИИ, ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ГЕОЭКОЛОГИИ* (pp. 97-100).
20. <https://uzbektourism.uz>
21. <https://stat.uz>